

**CHO'LPON VA BUGUNGI YOSHLAR: AXBOROT ASRIDA TANQIDIY FIKRLASH****Uzoqova Jasmina Saydulla qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyot yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20513850>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodidagi erkinlik va istiqlol g'oyalari zamonaviy yoshlar dunyoqarashi orqali tahlil qilingan. Muallif shoirning "Ko'ngil" she'ri va "Kecha va kunduz" romani misolida jadidlar ilgari surgan shaxsiy va ijtimoiy ozodlik konsepsiyasini bugungi kun muammolari, xususan, axborot asridagi fikriy qaramlik va xotin-qizlar ta'limi masalalari bilan bog'laydi. Maqolada Cho'lpon merosining yoshlar tanqidiy fikrlashini shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy manbalarga tayangan holda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Cho'lpon, jadidlar adabiyoti, erkinlik g'oyasi, yoshlar dunyoqarashi, "Ko'ngil", Zebi obrazi, shaxsiy ozodlik, tanqidiy fikrlash.

**Kirish.**

Bugun biz, yigirma birinchi asr yoshlari, "erkinlik" so'zini juda ko'p ishlatamiz. Tanlov erkinligi, fikr erkinligi, shaxsiy hudud daxlsizligi... Biroq, har gal ijtimoiy tarmoqlarda bir guruh yoshlarning o'z mustaqil fikriga ega emasligi, ommaviy madaniyat yoki tayyor qoliplar ketidan ko'r-ko'rona ergashayotganini ko'rganimda, bir savol meni qiynaydi: Biz chindan ham erkinmizmi?

Aynan mana shu nuqtada men o'zbek adabiyotining eng yorqin va jasoratli siymosi — Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ijodiga qaytishni burchim deb bildim. Chunki Cho'lpon va uning safdoshlari bo'lgan jadidlar bundan bir asr muqaddam aynan mana shu fojia — millatning tafakkur qulligiga qarshi kurashgan edilar.

Ularning maqsadi faqatgina mustamlaka tuzumidan qutulish emas, balki eng birinchi galda inson ongini ozod qilish edi. Bugungi kun yoshlari sifatida biz Cho'lpon merosiga muzey ekspanati kabi emas, balki ichki dunyomizni uyg'otadigan tirik qurol sifatida qarashimiz kerak.

Cho'lpon she'riyatining o'zagi — bu Isyon va Erkinlikdir. Uning 1922-yilda yozilgan "Ko'ngil" she'rini shunchaki adabiy matn emas, balki inson ruhiyatining ozodlik deklaratsiyasi deb hisoblayman. Shoir yozadi:

Kishan kiyma, bo'yin egma,

Ki, sen ham hur tug'ulg'onsen!

Taniqli adabiyotshunos olim Naim Karimov o'zining "Cho'lpon" nomli fundamental tadqiqotida ta'kidlaganidek, shoir bu o'rinda faqatgina siyosiy kishanlarni nazarda tutmagan.

"Kishan" — bu insonni o'zligidan ayiradigan, uni jamiyat belgilab bergan noto'g'ri yo'llarga bo'ysundiradigan har qanday ichki va tashqi to'siqdir.

Bugungi yoshlar hayotiga buni qanday tatbiq etish mumkin? Biz ko'pincha atrofimizdagi odamlarning gap-so'zlari ("odamlar nima deydi?"), muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish yoki jamiyat majburlayotgan qoliplar sabab o'z orzularimizdan voz kechamiz.

Cho'lpon esa bizga: "Ko'ngil, sen munchalar nega kishanlar birlan do'stlashding?" deya savol beradi. Demak, bugungi yoshlar uchun Cho'lponni o'qish bu o'z qo'rquvlariga qarshi chiqish, tanqidiy fikrlashni o'rganish va o'z taqdirini o'zi belgilash jasoratini topish demakdir.

Cho'lpon she'riyatidagi erkinlik hayqiriqlari uning nasriy shohasari — "Kecha va kunduz" romanida real hayotiy fojialar orqali ko'rsatib beriladi.

Romanning bosh qahramoni Zebi shunchaki asr boshidagi o'zbek qizining obrazi emas, u erkinlik, huquqsizlik va jaholat qurbonidir.

Taniqli adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov o'zining jadidlar ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishlarida ta'kidlaganidek, Cho'lpon Zebi fojiasi orqali butun bir millatning fojiasini ilmsizlik va mutaassiblik botqog'iga botgan jamiyatni ko'rsatishni maqsad qilgan. Zebining fojiasi uning atrofidagilar irodasiga ko'r-ko'rona bo'ysunishi, o'z hayoti haqida mustaqil qaror qabul qila olmasligida edi. U tush ko'rardi, go'zallikni sevardi, lekin uning ma'naviy dunyosi o'sha davr ijtimoiy qoliplari tomonidan bo'g'ib tashlandi. Men bugungi kun yoshlarning muammolariga qarar ekanman, Zebi qismatining achchiq aks-sadosini ko'rgandek bo'laman.

To'g'ri, bugun qizlarimiz paranji yopishmaydi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishadi. Biroq, hanuzgacha jamiyatimizda qiz bolaning ta'lim olishiga "birovning xonadoniga boradigan odam" qabilida munosabatda bo'lish, uning shaxsiy rivojlanishidan ko'ra erta turmush qurishini ustun qo'yish kabi stereotiplar saqlanib qolmoqda. Cho'lpon bizga Zebining ayanchli qismati orqali shunday signal bermoqdaki: agar ayol kishi ilmi, mustaqil va huquqiy jihatdan erkin bo'lmasa, jamiyat hech qachon "kunduz"ga — yorug'likka chiqa olmaydi.

Demak, bugungi o'zbek qizlari uchun Cho'lponni tushunish bu o'z haq-huquqlarini anglash, ilm-fan cho'qqilarini egallash va hayotda o'z so'ziga ega bo'lish demakdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Abdulhamid Cho'lpon merosi biz uchun shunchaki o'tmish tarix yoki adabiyot darsligidagi quruq ma'lumot emas. U bugungi shiddatli va globallashgan zamonda o'zligimizni yo'qotib qo'ymaslik uchun eng zarur ma'naviy mayoqdir.

Shoir o'ziga bejiz "Cho'lpon", ya'ni tong oldidan eng qorong'u pallada charaqlab chiquvchi yo'lchi yulduz taxallusi tanlamagan edi. U o'z millatining eng qora va tushkun kunlarida umid va erkinlik yulduzi bo'la oldi.

Bugun biz moddiy jihatdan erkinmiz, istagan davlatimizga borish, istagan axborotimizni olish imkoniyatiga egamiz. Biroq chinakam erkinlik — bu ichki dunyoning ozodligidir.

Birovning fikri bilan yashamaslik, ijtimoiy tarmoqlardagi soxta trendlar qurboniga aylanmaslik va milliy qadriyatlarni asragan holda zamonaviy bo'lish mana bugungi kun yoshlarining eng katta vazifasi. Cho'lpon orzu qilgan "Kunduz" — bu ilmi, tafakkuri ozod, o'z haq-huquqini taniydigan va vatani taqdiri uchun mas'uliyatni his qiladigan yoshlar jamiyatidir.

Biz uning she'rlaridagi isyonni, romanlaridagi ogohlantirishlarni yurakdan o'tkazib o'qir ekanmiz, jadid bobolarimiz boshlagan, ammo oxiriga yetkazishga ulgurmagan o'sha ma'naviy inqilobni davom ettirishga burchlimiz. Zero, kishanlarni parchalash faqat jismonan emas, eng birinchi navbatda ongda sodir bo'ladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Cho'lpon, Abdulhamid. Kecha va kunduz: Roman. — Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2019. — 320 b. (Ziyouz portalidagi elektron nusxasi).
2. Cho'lpon, Abdulhamid. Yana yonar o't: She'rlar. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. — 180 b. (Tarkibida "Ko'ngil" she'ri o'rin olgan).
3. Karimov, Naim. Cho'lpon (Ma'rifiy-biografik roman). — Toshkent: Sharq, 2003. — 464 b. (Olim haqida ma'lumot va tadqiqotlar).
4. Sharafiddinov, Ozod. Cho'lponni anglash. — Toshkent: Yozuvchi, 1993. — 160 b.
5. Sharafiddinov, Ozod. Istiqloq fidoiylari (Jadidlar merosi va talqini). — Toshkent: Ma'naviyat, 2003. — 288 b.